




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

Ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining o'rni**Dilshodbekova Shahinabonu Dilshodbek qizi**

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Turdaliyeva Dilfuza Salohiddinovna**

Farg'ona davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda millatlararo muloqot kompetensiyasining o'rni va ingliz tili o'qitishda ingliz tilini o'rganuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini qanday rivojlantirish, shuningdek ingliz tili o'qitishning muhim maqsadlarini tushunib yetishni tadqiq qiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль компетенции межкультурного общения в преподавании английского языка и то, как развивать компетенцию межкультурного общения в преподавании английского языка, а также понимание важных целей преподавания английского языка.

Annotation. This article explores the role of intercultural communication competence in English language teaching and how to develop intercultural communication competence in English language teaching, as well as understanding the important goals of English language teaching.

Kalit so'zlar: ingliz tili, millatlararo va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, o'qitish, muhim maqsadlar.

Ключевые слова: английский язык, межэтническая и межкультурная коммуникация, преподавание, важные цели.

Key words: english language, interethnic and intercultural communication competence, teaching, important goals.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyalari haqida gapirar ekanmiz, avvalo, kompetensiya qanday ma'no anglatishini ko'rib chiqamiz. "Kompetensiya" lotincha "competere" so'zidan olingan bo'lib, "o'z kasbiga yaroqli" degan ma'noni bildiradi.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kompetensiya atamasi XX asrning o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida baho beradi. Uning izdoshlari bo'lgan ba'zi bir olimlar esa ushbu tushunchani kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etishgan.

"Kompetentlik" deganda aslida shaxsning biror faoliyatga oid chuqur tushunchasi va uni bajara olish darajasi tushuniladi. Lug'aviy manbalarda ham kompetentlik "biror narsa haqida fikr yurita olish, o'z mulohazasini asoslab ayta olishga imkon beradigan chuqur bilim" sifatida ta'riflanadi. Ya'ni sodda qilib aytganda, kompetentlik — maqsadga erishish uchun nimalar zarurligini aniq bilish va buni amalda qo'llay olishdir. Kasbiy kompetentlik esa — kasbiy jarayondagi masalalarni bilim, ko'nikma va tajriba asosida samarali hal qila olish qobiliyati.

R.P. Milrudning fikricha, kompetensiya — bu shaxs o'z faoliyati davomida to'plagan tajriba, mavjud bilimlar va muntazam o'z ustida ishlash orqali shakllantiradigan muvaffaqiyat strategiyasidir. Shunga ko'ra, kompetentlik — amaliy bilimlar va malakalar asosida to'g'ri qaror qabul qilish va samarali harakat qilinishiga yordam beradigan qobiliyatdir. Shu sabab, bugungi zamonaviy talqinda kompetentlik nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki odamning mas'uliyat bilan mustaqil qaror qila olishini ta'minlaydigan ruhiy holatlarni ham o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasi o'z tarixiga ega. Bu borada N. Xomskiy, R. Uayt, J. Raven, D. Xayms kabi olimlarning tadqiqotlari asos bo'lgan. O'zbekistonda ham ushbu yondashuvni ta'lim tizimiga tatbiq etish oqibatida Davlat ta'lim standartlari takomillashtirildi va barcha bosqichlarda o'quv dasturlari mazmuni yangilandi. 2017-yil 8-aprelda tasdiqlangan yangi standartlarda umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilar uchun yoshiga mos tayanch va xususiy kompetensiyalar belgilab berilgan.

Tayanch kompetensiyalar qatoriga kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, fuqarolik kompetensiyalari, milliy va umummadaniy kompetensiya hamda fan-texnika yangiliklaridan foydalanish kompetensiyalari kiradi. Bugungi kunda barcha fanlar bo'yicha DTSda kompetensiya turlari aks etgan va har bir fanga xos alohida kompetensiyalar ishlab chiqilgan.

Chet tillarni o'qitish bo'yicha ham aniq kompetensiyalar belgilangan. Masalan, **lingvistik kompetensiya** — til material (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilim va nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiradi. **Sotsiolingvistik kompetensiya** — nutqiy vaziyatga mos til birliklarini tanlay olish qobiliyatidir. **Pragmatik kompetensiya** esa — kommunikativ vaziyatda tushunmovchilik yuzaga kelganda undan chiqib ketish, takror so'rash yoki izoh berish kabi amaliy harakatlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, kompetentlik yondashuvi shaxsda nafaqat bilim, balki amaliy vaziyatlarni hal eta olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Kasb talablari va texnologiyalar tez o'zgarayotgan hozirgi zamonda bu juda muhim. Chet tili bo'yicha kompetensiyalar shakllanishi esa talabalarni kommunikativ jihatdan faol bo'lishga olib keladi. Kommunikativ kompetensiya esa lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Til o'qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvning asosiy maqsadi — o'rganuvchida chet tili orqali madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdir. Chunki til — ma'lum bir jamiyat madaniyatining ko'rinishidir. Tilni o'rganish orqali biz o'sha xalqning madaniy dunyoqarashini ham anglaymiz. Bobokalonlarimiz ham bir necha tilni bilgan va bu ularning boshqa xalqlar bilan muloqotda bo'lishiga yordam bergan. Shunday ekan, chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ter-Minasovning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim jarayonida asosiy o'rin madaniyatlararo muloqot qila olish qobiliyatiga berilishi kerak. Hozir xalqlar,



tilar va madaniyatlar bir-biriga juda yaqinlashgan bir davrda turli madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglik, hurmat va qiziqish uyg'otish alohida ahamiyatga ega. Til va madaniyat bir-biridan ajralmaydi. Tilni madaniy kontekstdan uzilgan holda o'rganish to'liq natija bermaydi. Hatto lisoniy bilimlar yuqori bo'lsa ham, madaniy ma'lumot yetishmasa, muloqotda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

A.V. Xutorskoy o'quvchining umumiy rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatli-mazmunli, umummadaniy, informatsion, kommunikativ, shaxsiy va boshqa kompetensiyalarni ham ajratadi. Uning fikricha, bu kompetensiyalar o'quvchiga zamonaviy jamiyatda faoliyat yuritish, yashash va ijtimoiy tajriba orttirish imkonini beradi.

D.F. Ilyasov esa chet tilini o'rganishda ijtimoiy, predmetli, informatsion, projektivli, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ kompetensiyalarni asosiy deb hisoblaydi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya esa yangi madaniyatga moslashish, o'sha madaniyatni hurmat qilgan holda muloqot qila olishni anglatadi.

Shu fikrlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, tilni o'qitish jarayonida nafaqat tilning o'zi, balki uning ortidagi madaniyat, qadriyatlar va ijtimoiy jarayonlarni o'rganish ham nihoyatda muhimdir.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini quyidagicha tushunish mumkin: bu — chet tilida muloqot qilayotgan shaxsning o'sha til sohiblarining ijtimoiy va nutqiy xulq-atvori, urf-odatlari, muomala qoidalari, tarixi va madaniyatidan xabardor bo'lishi, eng muhimi, muloqot jarayonida shu bilimlardan to'g'ri foydalana olishi demakdir. Ya'ni odam faqat tilni bilishi bilan cheklanmay, balki o'zga madaniyat vakillari bilan samarali va to'g'ri muloqot qila olishi ham zarur. Shuni ham aytish kerakki, chet tilini o'rganishda talabaning ona tili va undagi ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Chunki yangi til madaniyatini qabul qilish, avvalo, o'z madaniy manzarasini anglashdan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi madaniyat, falsafa, etnolingvistika, tarix, adabiyot, geografiya va mamlakatshunoslikka oid bilimlar asosida shakllanadi. Bu kompetensiya jamiyatshunoslik, tilshunoslik va mamlakatshunoslik bo'yicha bilimlarni uyg'unlashtirishga yordam beradi. Turli xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari, madaniy merosi va ularning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini o'rganishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining roli. Musayeva Shahzoda Ibrohimovna. "PEDAGOGS international research jurnal. January 2022".
2. Xomskiy N. "Til va tafakkur" M:O'quv adabiyoti. 2012-yil
3. Jon Raven. Zamonaviy jamiyatda kompetentsiya: aniqlash, rivojlantirish va amalga oshirish. Moskva, 2002 yil.
4. Jalolova, M. (2023). Intermdaniy muloqot va til o'rganish: O'zbekiston tajribasi. Toshkent: Yangi asr avlodi.

